

Hisob shartnomasi № 7

Tovar yetkazib berish bo'yicha

Beshariq tum. «30» yanvar 2022 yil.

«DOCTOR-Z FAYZ» MChJ (keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi Rahbar Abdupattaev M.A., va Mirobod TTB-MKP (keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi), Ustav asosida harakat qiluvchi N.N.M.Razzakova ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Sotuvchi Sotib oluvchiga quyida kursorlangan miqdor va narxda tovar yetkazib berish majburiyatini oladi, Sotib oluvchi esa uz navbatida tovarni qabul qilib olib haqqini to'lash majburiyatini oladi:

№	Tovar nomi	O'lch. Bir.	Miqdori	Narxi 1 o'lch. bir. u-n	To'lov miqdori
1	Pergidrol (Dizenfeksiya vositalari)	kg	30	13 500	405 000
Jami:					405 000

1.2. Ushbu shartnoma bo'yicha yetkazilgan tovarlar uchun to'lov, mazkur shartnomaning 1.1. bandida belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

II. TOVARNING NARXI VA SIFATI

2.1. Yetkazib berilayotgan tovarlarning sifati va amal qilish muddati shartnomani tuzish paytida ushbu turdagi mahsulot uchun qo'yiladigan standartlar va texnik shartlarga muvofiq bo'lishi kerak. Tovarlarining yaroqlilik muddati umumiy saqlash muddatining 80 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

2.2. Agar tovarning sifati ushbu shartnoma talablariga javob bermasa, Sotib oluvchi Sotuvchiga hisob fakturani imzolagan kundan boshlab 30 kun ichida da'vo ariza berish huquqiga ega. Sotib oluvchi tovarlarni saqlash shartlariga rioya qilishi shart. Tovarlarini noto'g'ri saqlash yoki sotib oluvchining harakati/harakatsizligi tufayli yuz bersa, buning uchun Sotuvchi javobgar bo'lmaydi.

2.3. Tovarlarini miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish Sotib oluvchining omborida amalga oshiriladi va tomonlar imzolagan xisob- varak bilan tasdiqlanadi. Tovarlarini yetkazib berish sanasi tomonlar xisob-varaqni imzolagan sana hisoblanadi.

2.4. Tovarlarini qabul qilishda, Sotib oluvchi tovarlarni shartnoma hisob-varag'i shartlariga muvofiqligini va assortimentini, miqdorini, to'liqligini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida yetkazib berilgan tovarlarning ko'rsatilgan hujjatlarga mos emasligi aniqlansa, Sotuvchi tomonlarning kelishuviga asosan o'z mablag'lari evaziga Sotib oluvchining omboriga tovarlarini almashtirish/ yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.5. Tovar sotuvchining omboriga qabul qilingandan so'ng, tovarlarning miqdori nomuvofiqligi bo'yicha e'tirozlar qabul qilinmaydi. Sotib oluvchi 30 kun ichida Sotuvchiga qabul qilish dalolatnomasidagi tovarlarni sifati bo'yicha asosli yozma talablarini, shuningdek mustaqil ekspertiza tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli.

2.6. Yetkazib berilayotgan tovarlar davlat standartlar talablariga javob beradigan tayyor, konteynerlarga qadoqlangan bo'lishi kerak, bu tovarlarni tashish va saqlash paytida buzilish yoki shikastlanishdan saqlaydi.

2.7. Mazkur shartnomaning 2.5 bandida ko'rsatilgan tartibda nuqsonli tovarlar yetkazib berilganligi tasdiqlansa, Sotuvchi 30 kun ichida nuqsonli tovarlarni sifati tovarlar bilan almashtirishi shart.

2.8. Sotuvchining talabiga binoan Sotib oluvchi rad etilgan tovarlarni qaytarishi kerak.

2.9. Rad etilgan tovarlarni almashtirish yoki qaytarish bilan bog'liq barcha harajatlarni Sotib oluvchi to'laydi.

III. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI

3.1. Tovarlar Sotib oluvchining omboriga o'zining kuchi bilan yetkazib beriladi.

3.2. Tovarini topshirish, qabul qilish joyi Sotib oluvchining ombori hisoblanadi.

3.3. Tovarini topshirish muddati avans to'langan kundan boshlab 5 ish kunini tashkil qiladi.

3.4. Sotib oluvchiga yetkazib berilgan maxsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xisob-varaqni rasmiylashtirish sanasi Sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

3.5. Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

IV. HISOB KITOB QILISH TARTIBI

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha tovarning umumiy narhi 405 000

(**Tortyuz beshimig**) sumni tashkil qiladi.

4.2. Yetkazib berilgan tovar uchun haq to'lash Sotib oluvchi tomonidan ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab shartnoma umumiy qiymatining 30 foiz miqdorida oldindan amalga oshiriladi. Qolgan 70 foizi tovar yetkazib berilgan kundan boshlab 30 kun ichida xisob-varaqga asosan to'lab beriladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar ushbu shartnoma orqali hamda O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi Qonuniga asosan hal qilinadi.

5.2. Neustoyka yoki yetkazilgan zararni to'lash taraflarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yetkazib berishning tegishli davrida tovarlarni yetkazib berishni kechiktirish yoki to'liq yetkazib bermaganlik uchun Sotuvchi Sotib oluvchiga qonunda belgilangan tartibda neustoyka to'laydi.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Хужжат коди: BH74852318

5.3. Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida kelib chiqadigan nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi. Sudga da'vo kiritishdan oldin nizo o'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal qilinadi. Da'vo arizani taqdim etish va ko'rib chiqishda tomonlar «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga amal qiladilar.

VI. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

6.2. Tarafar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

6.3. Agar fors major holatlari to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, fors major holatlarini boshidan kechirgan tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararni qoplashi shart.

VII. QO'SHIMCHA SHARTLAR

7.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralarini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

7.2. Tarafar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar. Shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni tarafar xodimlari o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Tarafar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

7.3. Shartnoma tarafaridan hech biri boshqa tomonning rozilgisiz ushbu shartnoma bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxsga berishga haqli emas.

7.4. Mazkur shartnoma tomonlar imzolanganidan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.

7.5. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yozma ravishda rasmiylashtirilgan va tarafar tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy xisoblanadi.

7.6. Mazkur shartnoma tarafarlarning kelishuvi bilan, bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor qilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.

7.7. Hisob-Shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va tarafarga bir nusxadan beriladi.

7.8. Tarafarlarning manzili yoki xisob raqamlari o'zgarigan hollarda ushbu o'zgarish to'g'risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi.

VIII. TARAFLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

SOTUVCHI: OOO «DOCTOR-Z FAYZ» Manzil: Fargona viloyati Beshariq tumani Ijodkor kochasi №23 Telefon: 93 647-60-06 X/R: 2020 8000 7053 2519 5001 AIKB Milliy bank Beshariq filiali, Beshariq tumani MFO: 00885 INN: 308 062 660 Raxbar: Abdupattaev M.A.	Mirobod TTB-MPK Manzil: g.Toshkent, uy.Yakub-Kolos-8. Tel:71-256-17-24 L/s: 100022860262737072120054011 INN: 201249592 OKED:86210 Moliya Vazirligi G'aznachiligi R/s: 23402000300100001010 Markaziy bank XKKM MFO:00014 INN: 201122919 Raxbar: N.M.Razzakova M.U.
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RI SIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi – Shartnoma.
2. Loyihaning nomi – № 7 shartnoma.

Toshkent shahar hokimiyati sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi Mirobod tuman tibbiyot birlashmasi bilan "DOCTOR-Z FAYZ" MChJ o'rtasida tuzilgan shartnoma loyihasi, mahsulot yetkazib berish haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana – Toshkent shahar hokimiyati sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi Mirobod tuman tibbiyot birlashmasi, 26.01.2022-yilda Mirobod tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



A.Mardonov

